DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-99 Pages: 844-855

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



THE EASTERN RENAISSANCE AND ABU NASR AL-FARABI: HIS LIFE AND INFLUENCE ON ARABIC LINGUISTICS

Khaydarkhon H. Yuldashkhojayev
Associate Professor, Doctor of Historical Sciences
Head of the Department of Classical Eastern Philology
New Century University
Email: haydarxon69@mail.ru
Uzbekistan, Tashkent

Abdulkuddus A. Abdusattorov
Master, Student in Arabic Linguistics
Classical Oriental Philology
New Century University
Email: aabdusattorov039@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Eastern Renaissance, Arabic linguistics, scholars of Movarounnahr, Farabi, schools, philosophy and language.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: During the 9th to 11th centuries, Arabic linguistics in Movarounnahr reached its peak, with scholars such as Abu Nasr al-Farabi, Ibn Sina, al-Maturidi, and az-Zarnuji deeply studying the lexical, phonetic, morphological, and syntactic aspects of the Arabic language. In cities like Bukhara, Samarkand, Tashkent, and Merv, unique schools of Arabic linguistics emerged. The scholars of Movarounnahr introduced new theoretical approaches and methodologies, investigating the influence of language on culture, philosophy, and human consciousness. Al-Farabi's works, such as "Kitab al-Huruf", provided a profound philosophical analysis of the relationship between language and philosophy. The development of Arabic linguistics during this period held fundamental significance not only for its time but also for subsequent centuries. The scholarly legacy of Movarounnahr's

intellectuals continues to contribute significantly to the advancement of modern linguistics. This era remains a golden age of Arabic linguistics, leaving an indelible mark on the history of Islamic culture. The research of Movarounnahr's scholars elevated linguistics to a new stage, providing a major impetus for its development.

SHARQ RENESSANSI VA ABU NASR FOROBIYNING HAYOTI VA ARAB TILSHUNOSLIGIGA TA'SIRI

Haydarkhon H. Yuldoshkhojayev
Dotsent, tarix fanlari nomzodi
Mumtoz sharq filologiyasi kafedrasi mudiri
Yangi asr universiteti
Email: haydarxon69@mail.ru
O'zbekiston, Toshkent

Abdulquddus A. Abdusattorov
Magistr, Arab lingvistikasi mutaxassisligi
Mumtoz sharq filologiyasi
Yangi asr universiteti
Eamail: aabdusattorov039@gmail.com
O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Sharq renessansi, Arab tilshunosligi, Movarounnahr ulamolari, Forobiy maktablar, falsafa va til.

Annotatsiya: IX–XI asrlarda Movarounnahrda arab tilshunosligi rivoji yuksalib, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, al-Moturidiy va az-Zarnujiy kabi ulamolar arab tilining lug'aviy, fonetik, morfologik va sintaktik jihatlarini o'rgandilar. Buxoro, Samarqand, Shosh va Marv kabi shaharlarda arab tilshunosligiga oid ilmiy maktablar shakllandi. Movarounnahr ulamolari tilshunoslikka yangi nazariyaviy yondashuvlar va metodlarni kiritib, tilning madaniyat, falsafa va inson ongiga ta'sirini tadqiq qildilar. Forobiyning "Kitob al-Huruf" kabi asarlari til va falsafa o'rtasidagi munosabatni falsafiy jihatdan chuqur tahlil qildi. Arab tilshunosligining bu davrdagi rivoji nafaqat o'z zamonasi, balki keyingi asrlar uchun ham fundamental ahamiyatga ega bo'ldi. Movarounnahr ulamolarining ilmiy merosi bugungi kunda ham zamonaviy tilshunoslik fanining rivojiga muhim hissa qo'shishini yoritdi. Bu davr arab tilshunosligining oltin davri sifatida Islom madaniyati tarixida o'z izini qoldirdi. Movarounnahr ulamolarining tadqiqotlari

tilshunoslikni yangi bosqichga olib chiqib, uning rivojiga katta turtki bo‘ldi.

ВОСТОЧНОЕ ВОЗРОЖДЕНИЕ И АБУ НАСР АЛЬ-ФАРАБИ: ЕГО ЖИЗНЬ И ВЛИЯНИЕ НА АРАБСКОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Хайдархан Х. Йулдашходжаев
Доцент, кандидат исторических наук
Заведующий кафедрой классической восточной филологии
Университет "Янги аср"
Email: haydarxon69@mail.ru
Узбекистан, Ташкент

Абдулкуддус А. Абдусатторов
Магистр, специальность арабской лингвистики
Классическая восточная филология
Университет "Янги аср"
Email: aabdusattorov039@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Восточное Возрождение, арабское языкознание, ученые Мавераннахра, школы Фараби, философия и язык.

Аннотация: В IX–XI веках развитие арабского языкознания в Мавераннахре достигло своего расцвета. Такие ученые, как Абу Наср Фараби, Ибн Сина, аль-Матуридий и аз-Зарнуджи, изучали лексические, фонетические, морфологические и синтаксические аспекты арабского языка. В таких городах, как Бухара, Самарканд, Шаш (Ташкент) и Мерв, сформировались научные школы, посвященные арабскому языкознанию. Ученые Мавераннахра внесли новые теоретические подходы и методы в лингвистику, исследуя влияние языка на культуру, философию и человеческое сознание. Труды Фараби, такие как "Китаб аль-Хуруф" ("Книга букв"), глубоко анализировали связь между языком и философией с философской точки зрения. Развитие арабского языкознания в этот период имело фундаментальное значение не только для своего времени, но и для последующих веков. Научное наследие ученых Мавераннахра продолжает вносить важный вклад в развитие современной лингвистики. Этот период оставил глубокий след в истории исламской культуры как золотой век арабского языкознания. Исследования ученых Мавераннахра вывели лингвистику на

новый уровень и стали мощным импульсом для ее дальнейшего развития. Их работы не только обогатили науку о языке, но и заложили основы для будущих исследований, подчеркивая важность языка как инструмента познания и культурного развития.

Kirish. Movarounnahr zamini ilm va ma’rifat bilan sug‘orilgan qadimiy o‘lkalardan biridir. Arab tilshunosligi tarixida bu hudud olimlari o‘zining yorqin izlarini qoldirib, tilning rivojlanishida muhim o‘rin tutganlar. Movarounnahr tilshunoslarining yondashuvlari orqali arab tilining zamon talabiga mos rivojlanishi, nazariy yutuqlar bilan boyishini butun jahon e’tirof etadi.

Movarounnahr tilshunoslari yaratgan lingvistik asarlar arab tilining fonetika, morfologiya, va sintaksis, semantika sohalarida katta o‘zgarishlarga zamin yaratdi. Til rivojida kam o‘rganilgan, ammo qimmatli bo‘lgan nazariyalar va ularning bugungi zamonaviy tilshunoslikka ta’siri hali hanuz tugagani yo‘q, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu bilan birga arab tilining o‘rganilishi faqatgina lingvistik nuqtai nazardan emas, balki keng ma’noda madaniyat va ma’naviyat, ma’rifat rivojiga ta’sir ko‘rsatgan muhim omil sifatida qaraladi. Movarounnahr olimlarining arab tiliga bo‘lgan qiziqishi tilshunoslikda fundamental yutuqlarni olib keldi. Ayniqsa, ularning til grammatikasini shakllantirish va uni aniq nazariy asoslarda izohlash borasidagi sa’y-harakatlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Mavorounnahrda arab tilshunosligining rivojlanishini o‘rganishda Abu Nasr Forobiy (870–950), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Abu Mansur al-Moturidiy (853–944), Abu Bakr az-Zarnujiy (XI asr), Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780–850), Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839–923) kabi ulamolarning asarlari asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Ularning asarlarida arab tilining fonetika, morfologiya, sintaksis va semantika jihatlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, Forobiyning “Kitob al-huruf”, “Fozil odamlar shahri”, “Fanlarni tasniflash” kabi asarlari til va falsafa o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishda muhim manba sifatida ko‘rildi. O‘rganish davomida tarixiy-taqqosiy metod, filologik tahlil, falsafiy-metodologik yondashuv va madaniy-antropologik metodlar qo‘llanildi. Tilshunoslikning nazariyaviy jihatlarini tahlil qilishda Forobiyning “Kitob al-huruf” asarida til va falsafa o‘rtasidagi munosabatlarni chukur tahlil etish muhim ahamiyat kasb etdi. Shuningdek, Buxoro, Samarqand, Shosh va Marv maktablarining arab tilshunosligiga qo‘shgan hissasini tahlil qilishda tavsifiy, qiyosiy va komponentli tahlil metodlari qo‘llanildi.

Natijalar: Arab tilshunosligi Movarounnahr tarixida IX-XI asrlarda eng yuksak maqomga erishdi. Bu zamonlardagi taniqli ulamolarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Mansur al Moturidiy, Abu Bakr az Zarnujiy, Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir al Tabariy va yana yuzlab allomalar, arab tiliga asosiy tamoyillarni tatbiq etib, unga yangi qiyofa bag'ishlashgan. Ular orqali arab tilining nafaqat lug'aviy boyligi, balki til fonetikasi va morfologik strukturasi, til va din tarixi ham yanada boyidi. Bu davrda o'ziga xos arab tilshunoslik maktablari ham shakllandi. Ushbu maktablar nafaqat Movarounnahrda, balki boshqa yurtlarda ham tanildi va ko'plab olimlarga ilhom manbayi bo'ldi. Ulardan eng mashurlarini keltirib o'tamiz:

Buxoro maktabi - Movarounnahr arab tilshunosligining rivojlanishida sezilarli ahamiyatga ega bo'ldi. Bu maktabda, asosan, nahv va sarf ilmi, lingvistik jihatdan tahlil qilish qoidalari o'rganilgan. Buxoroda ilmiy tahlil va yozma asarlar hamda misollar orqali tilshunoslik rivojlanib borgan.

Samarqand maktabi - Samarqandda ham arab tilining rivojlanishi sezilarli bo'ldi. Samarqand maktabi tilshunosligi ko'proq arab tilining so'z boyligini kengaytirish va lug'atlarni shakllantirishga e'tibor qaratdi. Samarqandda Abu Nasr Forobiyning o'rni katta bo'lib, u tilshunoslikda mantiqiy yondashuvlarni amalga oshirgan.

Shosh maktabi - Shoshda esa arab tili va adabiyotining o'rganilishi davom etdi. Bu maktabda arab tilining fonetikasi, sintaksisi va morfologiyasi masalalari ko'proq o'rganilgan. Shoshda Forobiy va uning izdoshlari arab tilining asosiy yondashuvlarini kengaytirganlar.

Marv maktabi - Marvda ham arab tilshunosligi rivojlanib, bu maktabda ilmiy-tanqidiy ishlanmalar va arab tilining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan izlanishlar amalga oshirilgan.

Til o'rganish jarayonida tilning madaniyatga, falsafaga va inson ongiga ta'siri haqida qimmatli g'oyalar shakllandi. Movarounnahrda arab tilining o'ziga xos o'rni va tarixi tilshunoslikka oid izlanishlarda yangi qirralarni ochib bergan.

Bundan tashqari, arab tilshunosligida kam e'tibor qaratilgan aspektlar, jumladan, dialektologiya va leksikografiya kabi yo'nalishlar ham Movarounnahr olimlari tomonidan tahlil qilinganligi tahsinga sazovor. Bu tadqiqotlar hozirgi zamonaviy arab tilshunoslik rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Shu kunimizga qadar o'rganilgan tadqiqotlar Movarounnahrda arab tiliga qaratilgan ilmiy izlanishlarning naqadar chuqur va rang-barang ekanligini ko'rsatadi. Bunda qadimiy asarlar orqali Movarounnahr olimlarining tilshunoslikka qo'shgan hissalari va ularning zamonaviy ilm-fan bilan uyg'unligini ularning yozgan bebaho asarlari tasdiqlaydi.

Arab tilshunosligining Movarounnahr olimlari tomonidan rivojlanishi dunyo ilm-fani tarixida beqiyos o‘rin tutadi. Ibn Sino, az Zarnujiy ayniqsa, Forobiy, kabi buyuk ulamolar tilshunoslikka o‘ziga xos nazariy qarashlar, tahlillar va yondashuvlar olib kirdilar.

O‘rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog‘liq. Forobiy o‘z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilgan va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo‘shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitgani tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug‘lanib, “Al-muallim as-soniy” – “Ikkinchi muallim” (Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” deb yuritilgan.

Zahiruddin Abulhasan al-Bayhaqiy (499-565 h./1105-1170 m.) bunday degan:

“Hakim donishmandlar to‘rt nafardir. Ikkisi islomdan oldin o‘tgan. Ular Arastu (Aristotel) va Buqrot (Gippokrat). Ikkisi esa islomda o‘tgan. Ular Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinodir. Islom donishmandlari orasida avval Forobiydan afzali bo‘lmagan”.

Keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda Abu Nasr Forobiy haqida aniq dalillar mavjud emas degan farazlar bor. Lekin ko‘pchilik olimlar ittifoq qilgan manbalarga tayanib Forobiyning hayoti keltiriladi.

Abu Nasr Forobiy, IX asrda tug‘ilgan, Islom oltin asridagi eng taniqli faylasuflardan biridir. Ko‘pincha Aristoteldan keyin “Ikkinchi o‘qituvchi” deb ataladigan Forobiy yunon falsafasini Islom olamiga yetkazishda hal qiluvchi ro‘l o‘ynagan olimlardan biri hisoblanadi.

Buyuk donishmand, ulug‘ hakim Abu Nasr Forobiy hazratlari bunday deganlar:

“Hikmat ilmi (falsafa va umuman ilm-fan) bilan shug‘ullanishni istagan kimsa yosh, mijozi esa sog‘lom hamda yaxshi insonlarning odobi bilan odoblangan bo‘lmog‘i kerak. Eng avvalo, Qur’onni, lug‘at va shariat ilmini o‘rganishi lozim. Mehribon, iffatli, betakalluf va to‘g‘riso‘z bo‘lsin. Fisqu fujurdan uzoq, yolg‘ondan va xiyonatdan hamda makr va hiyladan yuz o‘girgan bo‘lsin. Tirikchilik tashvishlaridan xotirjam bo‘lsin. Shar’iy burchlarini ado qilishga intiluvchan hamda shariat arkonlaridan birortasiga xalal yetkazmaydigan bo‘lsin. Balki sunnat odoblaridan birortasiga beparvo bo‘lmasin. Ilm va olimlarni ulug‘lovchi va ta’zim etuvchi bo‘lsin. Uning-cha, faqat ilm va ilm ahligina qadrli bo‘lsin. Ilmini kasb va hunarlar qatorida sanamasin va ilmini mol-mulk jamg‘aradigan bir vosita qilib olmasin. Kimki shuning teskarisini qilsa, u yolg‘on va soxta bilimdondir. Zotan, yolg‘on to‘g‘ri gap bo‘lmas, soxta esa naqd pul bo‘lolmaydi. Xuddi shunday, kimning xulq-atvorida biz eslatgan narsalarning aksi bo‘lsa, u donishmandlar sirasidan sanalmaydi! Kimki dunyoda ilmini axloq bilan poklamas ekan, oxiratda baxtiyor bo‘lolmaydi!”

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlog‘ ibn Tarxon – ayrim manbada qozizoda Sa’id uni “Uzlaq” deb yozadi. Uning otasi Muhammad ibn Uzlag‘ ibn Taron harbiy qo‘mondon

bo‘lgan. Uning etnik kelib chiqishi fors bo‘lib, Xurosondagi turkiylar yashovchi Forob viloyatidagi O‘siq shahrida tug‘ilgan. Barcha tarixchilar bu haqda ittifoq qilganlar, yana boshqa manbalarda uning vatani Movarounnahr hududiga kiruvchi O‘trorda ekanligini qayd etadi.

Forobiy boshlang‘ich ma’lumotni ona yurtida oldi. So‘ng Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda o‘qidi. Keyinroq o‘z ma’lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo‘lgan Bag‘dodga keldi. Bag‘dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o‘lkalaridan, xususan, Markaziy Osiyodan kelgan ko‘p ilm ahllari to‘planishgan edi. U yerga bora turib Forobiy Eron shaharlari Isfahon, Hamadon, Ray va boshqa joylarda bo‘ldi.

Forobiy Bag‘dodda o‘rta asr fani va tilining turli sohalari, yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tanishib, o‘zga diniy e’tiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy muloqotda bo‘ldi. Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870–940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Xiylon (860–920)dan tabobat va mantiq ilmini o‘rgandi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Taxminan 941 yildan boshlab Forobiy Damashqda yashagan. Shahar chekkasidagi bog‘da qorovul bo‘lib, kamtarona kun kechirib, ilm bilan shug‘ullangan. So‘nggi yillar u Halab (Aleppo) hokimi Sayfuddavla Hamdamid (943–967) iltifotiga sazovor bo‘ldi. Tadqiqotchilar uning Halabdagi hayotini eng samarali davr hisoblaydilar. Chunki bu hokim hurfikrliligi, ilm-fanga e’tibor berganligi bilan ajralib turgan. U Forobiyni saroyga taklif etadi, lekin Forobiy bunga ko‘nmaydi, oddiy hayot kechirishni afzal ko‘radi. Forobiy 949–950 yillarda Misrda, so‘ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va “Bob as-sag‘ir” qabristoniga dafn qilingan.

Forobiy o‘rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko‘proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin:

1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar;

2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari – Platon, Aristotel, Evklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari (“Metafizika”, “Etika”, “Ritorika”, “Sofistika” va b.)ni batafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko‘rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan.Forobiy islom madaniyatining oltin davrida yashagan mashhur faylasuf olim bo‘lib, islom falsafasining asoschilaridan biri hisoblanadi. U o‘zning asarlarida yunon falsafasi va islom fikrini birlashtirib, ilmiy va falsafiy mavzularni ko‘p qirrali yondashuv bilan yoritgan.

Forobiyning asarlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Fozil odamlar shahri”, bu kitob Forobiyning siyosiy falsafa sohasidagi eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Unda “Fozil shahar” (utopiya) tushunchasi yoritilib, uni johil va fosiq shaharlar bilan solishtirilgan. Forobiy bu fikrlarini Aflotunning “Jumhuriyat” kitobidan olgan bo‘lsa-da, unga islomiy nuqtai nazarni qo‘shgan.

“Fanlarni tasniflash” kitobi ilmiy ensiklopediya bo‘lib, inson bilimlarini tilshunoslik, mantiq, matematika, tabiiy fanlar, ilohiyot va siyosat kabi turli sohalarga bo‘ladi. Kitob Forobiyning bilimni tashkil etishdagi metodologiyasini namoyon qiladi, bu esa islom dunyosida va Yevropada fanlarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan.

“Hikmat fosillari” kitobida falsafa, mantiq va tabiiy fanlarga oid turli mavzular yoritiladi. Forobiyning qiziqishlarining ko‘p qirrali ekanligini namoyon qiladi. Kitob Forobiyning falsafiy va ilmiy masalalarni chuqur tahlil qilishini, aqliy metodologiyaga e’tibor berishini ko‘rsatadi.

“Katta musiqa” kitobida musiqa nazariyalari va uning inson psixologiyasiga ta’siri yoritiladi. Islom madaniyatida musiqa fanning eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Forobiy musiqani matematik va psixologik jihatdan tahlil qilib, bu fanning rivojlanishiga xissa ko‘shgan. Forobiy chinakam jahon darajasidagi inson edi, u o‘z ijodida arab, fors, yunon, hind va o‘zining turkiy madaniyatining eng qimmatli yutuqlarini jamladi va umumlashtirdi. Ikkinchisining aks-sadolari ayniqsa uning mashhur “Kitob al-muzik al-kabir” (“Buyuk musiqa kitobi”) asarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

“Mantiq” kitobida mantiqning asosiy tamoyillari va uning falsafa va fanlardagi ahamiyatini tushuntiradi. Bu kitob islom madaniyatida mantiqni o‘rganishda asosiy manba hisoblanadi.

Yana bir muhim asarlaridan biri bu “Kitab al huruf” dir. Bu asar falsafa, tilshunoslik va mantiq sohalarini qamrab oladi. Forobiy unda tilning falsafiy tahlilini amalga oshirib, so'zlar, tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarini o‘rganadi. Asarda tilning falsafiy jihatlari, uning inson tafakkuridagi o‘rni va mantiqiy tuzilmalar haqida chuqur mulohazalar keltirilgan. Unda tilshunoslik va falsafaning kesishish nuqtalarini tadqiq qiladi. Forobiy bu asarida tilning mantiqiy tuzilmalari va ularning falsafiy tushunchalar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu asar orqali Forobiy til va falsafa o'rtasidagi munosabatni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Forobiy sharhlari O‘rta va Yaqin Sharq ilg‘or mutafakkir–larining dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Abu Ali ibn Sino Forobiy sharhlari (“Metafizika” – “Moba’diy tabiat”)ni o‘qib, Aristotel asarlarini tushunganini alohida ta’kidlaydi. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqnigina emas, o‘rta asr Yevropasini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o‘ynadi. Mutafakkir o‘z asarlarini o‘sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi.

Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolotga erishishining zaruriy vositasi, deb hisoblaydi. Butun insonlarni o‘zaro hamkorlikka, xalqlarni tinchlikka chaqiradi, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi.

Forobiy o‘z davridayoq buyuk olim sifatida mashhur bo‘lgan. Sharq xalqlarida u haqda turli hikoya, rivoyatlar vujudga kelgan. O‘rta asr olimlaridan Ibn Xallikon, Ibn Qiftiy, Ibn Abi Usabi’a, Bayhaqiylar o‘z asarlarida Forobiy ijodini o‘rganib, uning g‘oyalarini rivojlantirganlar.

Ibn Rushd Forobiy asarlarini o‘rganibgina qolmay, ularga sharhlar ham yozdi. Averroizm nomi bilan mashhur bo‘lgan uning falsafiy ta’limotining shakllanishi dastlab Forobiy va Ibn Sino faoliyati bilan bog‘liq. Averroizm ilmiy tendensiyalarni ifodalovchi ilg‘or yo‘nalish sifatida keng yoyilgan va Uyg‘onish davrining ko‘p ilg‘or mutafakkirlari dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatgan.

Xulosa. IX–XI asrlarda Movarounnahrda arab tilshunosligi eng yuksak cho‘qqiga chiqdi va bu davrda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Bakr az-Zarnujiy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy kabi ulamolar arab tilining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdilar. Ular arab tilining lug‘aviy boyligi, fonetikasi, morfologik strukturasi, sintaksisi va boshqa jihatlarini chuqur o‘rganib, tilshunoslikka yangi qiyofa va yondashuvlar kiritdilar.

Movarounnahrda Buxoro, Samarqand, Shosh va Marv kabi shaharlarda arab tilshunosligining o‘ziga xos maktablari shakllandi. Bu maktablar nafaqat mahalliy, balki butun islom olamida tanildi va ko‘plab olimlarga ilhom manbai bo‘ldi. Buxoro maktabi nahv va sarf ilmini rivojlantirsa, Samarqand maktabi lug‘at va so‘z boyligini kengaytirishga, Shosh maktabi esa fonetika va sintaksisga e’tibor qaratdi. Marv maktabi esa ilmiy-tanqidiy tadqiqotlar bilan ajralib turdi.

Abu Nasr Forobiyning arab tilshunosligidagi o‘rni uning falsafiy va ilmiy yondashuvlari bilan ajralib turadi. U tilshunoslikni mantiq, falsafa va madaniyat bilan bog‘lab, tilning inson ongiga va madaniyatga ta’sirini chuqur o‘rgandi. Forobiyning “Kitob al-huruf” kabi asarlari til va falsafa o‘rtasidagi munosabatni yoritib, tilshunoslikka yangi nuqtai nazarlar kiritdi.

Movarounnahr olimlarining arab tilshunosligiga qo‘shgan hissalari nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlar uchun ham ahamiyatli bo‘ldi. Ular arab tilini ilmiy, falsafiy va madaniy jihatdan boyitib, uni butun islom olamida ilg‘or darajaga olib chiqdilar. Bu davrda yaratilgan asarlar va ilmiy yondashuvlar hozirgi zamonaviy arab tilshunosligi va umumiy tilshunoslik fanining rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Forobiy qo‘lyozmalari dunyoning ko‘plab kutubxonalarida tarqalgan. Forobiy merosini o'rganish bilan shug'ullanuvchi olimlar guruhi ham birdek ko'p. Turli olimlar Forobiy asarlarini nashr etish, uning chinakam qomusiy merosining turli jihatlarini o‘rganish choralarini ko‘rish orqali Forobiyshunoslikka o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Shunday qilib, Movarounnahrda arab tilshunosligining rivojlanishi islom madaniyatining oltin davri sifatida qolgan va bu davrda yashab ijod qilgan olimlarning hissalari bugungi kunda ham qadrlanadi va o‘rganilmoqda. Abu Nasr Forobiy kabi buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi nafaqat o‘z davri, balki butun insoniyat uchun qimmatli manba bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Ahmedov, I. (2019). Arabic Linguistics in Movarounnahr in the 9th–11th Centuries. IX–XI asrlarda Movarounnahrda arab tilshunosligi.. – Tashkent: University Publishing. (in Uzbek) Retrieved from https://universitypress.uz/arabic-linguistics
2. Davronova, M. (2020). Arabic Linguistic Schools and Their Influence in Movarounnahr. Arab tilshunoslik maktablari va ularning Movarounnahrdagi ta’siri.– Tashkent: Sharq Publishing. 60 p. (in Uzbek)
3. Ibn Khaldun. (1997). Al-Muqaddimah (The Introduction).al-Muqaddima. – Beirut: Dar al-Fikr. 400 p. (in Arabic)
4. Nazarov, B. (2021). Abu Nasr al-Farabi and His Scientific Legacy. Abu Nasr Forobiy va uning ilmiy merosi. – Samarkand: Akademiya Publishing. (in Uzbek)
5. Rashidov, K. (2018). Abu Ali ibn Sina and the Development of the Arabic Language. . Abu Ali ibn Sino va arab tilining rivojlanishi. – Bukhara: Fan Publishing. (in Uzbek)
6. Al-Bayhaqi, Zahir al-Din. (1946). History of Islamic Sages. Ta’rix hukama al-Islam.Edited by Muhammad Kurd Ali. – Damascus: Taraqqi Press. 220 p. (in Arabic)
7. Rustamov, A. (2020). Movarounnahr and Arab Culture: The Development of Language and Science. Movarounnahr va arab madaniyati: til va fan taraqqiyoti. – Tashkent: Sharq Publishing. 136 p. (in Uzbek)
8. Walzer, R. (1985). Al-Farabi on the Perfect State: Abu Nasr al-Farabi’s Mabadi Ara Ahl al-Madina al-Fadila. Al-Farabi o sovershennom gosudarstve: Mabadi ara akhl al-Madina al-Fadila Abu Nasra al-Farabi. – Oxford: Clarendon Press. 120 p. (in English) Retrieved from https://clarendonpress.com/farabi-perfect-state